

Osmon haqidagi orzular yaqinlashganda!

2025 27 May

Bugun maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyalanuvchilari uchun Uzbekistan Airways havo kemalari va Uzbekistan Helicopters vertolyotlariga qiziqarli ekskursiya tashkil etildi. Bolalar havo mashinalarini yaqindan ko'rishdi, ularning qanday tuzilganini, qanday maqsadlarda foydalanilishini va samolyotlardan farqini bilib olishdi.





Uzbekistan Helicopters mutaxassislari vertolyotlarning texnik xususiyatlari haqida so'zlab berishdi va haqiqiy havo sarguzashtlari boshlanadigan joy – uchuvchi kabinasini ko'rsatishdi, Uzbekistan Airways bortkuzatuvchilari esa havo kemasi salonini mammuniyat bilan namoyish etishdi.





Hayrat, qiziqish va ko'plab savollar – ko'pchilik uchun ushbu kun aviatsiya kasbi orzusidagi birinchi qadam bo'ldi.



